



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **SOVET DAVRIDA BUXORO VILOYATINING TARIXIY-ME'MORIY YODGORLIKLARI: SIYOSAT, YONDASHUVLAR VA SAQLASH AMALIYOTI**

**Haydarov Sarvar Faxriddinovich**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, tadqiqotchisi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada sovet davrida Buxoro hududida ming yillar davomida shakllangan moddiy madaniyat yodgorliklarining holati, aholi uy-joylarining ahvoli, 1920-yil voqealari fonida moddiy merosga yetkazilgan zarar, shuningdek, sovet davrida yodgorliklarni tiklash ishlarini tashkil etish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar hamda aholi hayotiga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararlar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** "Tarixi nofeiy", To'qumdo'ziy hammomi, Puli Oshiqon, "Buxkomstaris", restavratsiya, smeta xarajatlari, G'oziyon madrasasi, arxeologiya ob'ektlari, madrasa, masjid, maqbara, arxitektura ansamblari, karvonsaroy, tim va toqilar, diqqatga sazovor joylar, qadimiy uy-joylar, arxitektura yodgorliklari, monumental yodgorliklar.

## **ИСТОРИКО-АРХИТЕКТУРНЫЕ ПАМЯТНИКИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД: ПОЛИТИКА, ПОДХОДЫ И ПРАКТИКА СОХРАНЕНИЯ**

**Хайдаров Сарвар Фахриддинович**

Самаркандский государственный университет имени Шарафа Рашидова, исследователь

### **Аннотация**

В данной статье анализируется состояние памятников материального культурного наследия, формировавшихся на территории Бухары на протяжении тысячелетий в советский период, состояние жилых домов населения, ущерб, нанесённый материальному наследию на фоне событий 1920 года, а также меры, принятые в советское время по организации работ по восстановлению памятников. Кроме того, освещается материальный и духовный ущерб, нанесённый жизни населения.

**Ключевые слова:** "Тарихи нофеий", баня Токумдўзий, Пули Ошикон, "Бухкомстарис", реставрация, сметные расходы, медресе Газиён, археологические объекты, медресе, мечеть, мавзолей, архитектурные ансамбли, караван-сарай, тимы и токи, достопримечательности, древние жилые дома, архитектурные памятники, монументальные памятники.

## **HISTORICAL AND ARCHITECTURAL MONUMENTS OF THE BUKHARA REGION IN THE SOVIET PERIOD: POLICY, APPROACHES, AND PRESERVATION PRACTICES**

**Haydarov Sarvar Fakhriddinovich**

Samarkand State University named after Sharof Rashidov, Researcher

### **Abstract**

This article analyzes the condition of material cultural heritage monuments in Bukhara during the Soviet period, the state of residential buildings, the damage caused to cultural sites in the events of 1920, as well as the organization of restoration works and their socio-cultural consequences for the population.

**Keywords:** "Tarikhi Nofeiyy", Tokumdoziy bathhouse, Puli Oshikon, "Bukhkomstaris", restoration, estimated costs, Gaziyon madrasa, archaeological sites, madrasa, mosque,

mausoleum, architectural ensembles, caravanserai, trading domes (tim and toqi), places of interest, ancient residential houses, architectural monuments, monumental monuments.

Buxoro hududi aholi hayotida muhim o‘rin tutgan tarixiy shaharlardan biri bo‘lib, u bir necha bor qayta bunyod etilganiga qaramay, o‘z tarixiy ildizlaridan uzilmagan. Shahar hududida qadimdan to hozirgi kungacha barpo etilgan ko‘plab me‘moriy yodgorliklar saqlanib qolgan va izchil ravishda takomillashib borgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, XX asr boshlarida bunday yodgorliklar soni bir necha yuztaga yetgan.

Biroq Buxoro qariyb bir asr davomida sovet hokimiyati ta‘sirida bo‘lib, bu davrda tarixiy merosga nisbatan ziddiyatli va ayrim hollarda vayronkor munosabat kuzatildi.

Buxoro shahridagi eng muhim yodgorliklar qatoriga Somoniylar maqbarasi kiradi. U nafis me‘morchiligi bilan ajralib turadi va butun musulmon olamida X asr me‘morchiligining eng yaxshi saqlangan namunasi hisoblanadi. Shuningdek, Qoraxoniylar davriga oid Mog‘aki Attor masjidi, Chashmai Ayub ziyoratgohi, Minorai Kalon kabi obidalar ham shaharning tarixiy qiyofasini belgilaydi.

Buxoroning ahamiyati alohida binolarda emas, balki uning yaxlit shaharsozlik muhitida, ayniqsa, Shayboniylar davridan boshlangan izchil me‘moriy rivojlanish jarayonida namoyon bo‘ladi [8; 9–10-b.].

Buxoroning tarixiy ahamiyatiga to‘xtalgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning: “Hamma o‘z tarixini ulug‘laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo‘q. Bu merosni chuqur o‘rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak” [7], degan fikrlarining o‘zi ham mazkur masalaning dolzarbligini ko‘rsatadi.

1920–1950-yillar davomida Buxoroda ko‘plab vayronagarchiliklar, tartibsiz qurilishlar va tabiiy omillar ta‘siriga qaramay, shahar o‘zining tarixiy muhitini ma‘lum darajada saqlab qoldi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Mazkur tadqiqot doirasida Buxoro viloyati hududidagi tarixiy-madaniy meros obidalari hamda aholi manzilgohlari bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar atroflicha tahlil qilindi. Jumladan, R. Abriyevning “O‘zbekiston mustaqilligi yillarida tarixiy-me‘moriy obidalarni ta‘mirlash va qayta tiklash jarayonlari” mavzusidagi monografiyasi, A. Jumanazarovning “Buxoro ta‘lim tizimi tarixi” nomli tadqiqoti, Q. Rajabovning “Tarix qatidagi haqiqat: Buxoro amirligi qanday tugatilgan edi?” mavzusidagi maqolasi, I. Muhsinov va M. Muhsinovalarning “Go‘zallikning boqiy timsoli” (Buxoro obidalari tarixidan lavhalar) asari, shuningdek, O. Narkulov va B. Mustayevlarning “Me‘moriy obidalarni o‘rganish va ta‘mirlash tajribalari” mavzusidagi ishlari hamda boshqa ilmiy manbalar o‘rganildi.

Shu bilan birga, Buxoro viloyati davlat arxivining 835–836-fondlarida saqlanayotgan materiallar, xususan, qadimgi davr va san‘at yodgorliklarini muhofaza qilish bo‘yicha Buxoro komissiyasi — “Buxkomstaris” (“Бухарский окружной комитет по изучению и охране памятников старины «Бухкомстарис» — Среднеазиатского комитета по изучению и охране памятников старины «Средазкомстарис»”) faoliyatiga oid hujjatlar ilmiy tahlil etildi.

**Materiallar va metodlar.** Mazkur tadqiqotda tarixiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil va xolislik tamoyillariga asoslangan ilmiy metodlardan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali sovet davrida Buxoro hududidagi tarixiy-me‘moriy obidalariga bo‘lgan munosabat mavjud ilmiy adabiyotlar hamda arxiv manbalari asosida kompleks ravishda tahlil etildi.

### **Tahlil va natijalar**

XX asr boshlarida Buxoro aholisining turar joylari asosan loy va paxsadan qurilgan soddagina binolardan iborat edi. 1920-yil voqealari Buxoro madaniy merosiga katta zarar yetkazdi. Bu haqda Muhammad Ali Baljuvoni “Tarixi nofeiy” (“Foydali tarix”) asarida quyidagicha yozadi: “Buxoroni bosib olish natijasida 34 ta aholi guzari, 3 mingdan ortiq do‘kon, 20 ta karvonsaroy, 29 ta aholi masjidi yonib xarob bo‘ldi” [6; 4-b.]. Shuningdek, shaharning ko‘plab hududlari —

Hazrati Imom darvozasidan Guzari Nazargacha, O'g'lon darvozasi, Kofirobod, Zindon atroflari va boshqa mahallalar jiddiy zarar ko'rdi. Qariyb uch mingta hovli yonib ketdi va shahar 20 kun davomida yondi.



**(1-rasm) Payi Kalon majmuasining 1920-yildagi ko'rinishi.**

Sovet hokimiyati o'rnatilgandan keyin madrasalarda ta'lim jarayoni to'xtatildi, ko'plab tarixiy binolar esa ma'muriy, xo'jalik va omborxonalar sifatida foydalanildi [3; 550-b.].

1920-yillardan boshlab yodgorliklarni ta'mirlash ishlari boshlangan bo'lsa-da, keng ko'lamlı restavratsiya ishlari asosan 1970-yillarda faollashdi. Bu jarayonda iqtisodiy omil, jumladan, turizmni rivojlantirish ehtiyoji muhim rol o'ynadi.

"Buxkomstaris" tashkiloti Buxoroda madaniy merosni muhofaza qilishda muhim institut sifatida faoliyat yuritdi. U orqali yodgorliklarni hisobga olish, ta'mirlash va muhofaza qilish ishlari yo'lga qo'yildi.

Shu bilan birga, sovet davrida madaniy merosga nisbatan munosabat ziddiyatli bo'ldi. Ayrim yodgorliklar o'z vazifasini yo'qotdi. Masalan, G'oziyon madrasasi mahalliy qamoqxonaga aylantirilib, uning bir qismi vayron qilingan [4; 17-b.].



**(2-rasm) Buxoro. BXSRSning birinchi yillari. G'oziyon madrasasida qamoqxonaga joylashgan. 1921–1923-yillar.**

1938-yilda bir qator yirik obidalarni ta'mirlash uchun 121119 rubl ajratilgan [2; 20-b.].

Keyingi yillarda ham rejali restavratsiya ishlari amalga oshirildi.

**1941-yil uchun Buxkomstaris me'moriy yodgorliklarini maxsus vositalar bilan ta'mirlash va restavratsiya qilish rejasi**

№	Me'moriy yodgorlik nomi	Limit (ming rublda)	Asosiy ishlarning tavsifi
1	Abdullaxon madrasasi	30,0	Hovli devorini temir rishtalar bilan mustahkamlash. Ayvonning taglik qismini o'tkazish, deformatsiyalangan kamarlar, ayvonga tutashgan tonozlar va tayanchlarni qayta yotqizish.
2	Toqi Telpakfurushon gumbazi	10,0	Tomni ta'mirlash — albaster ohak ustida kuygan g'isht bilan qoplash. Arklar, gumbazlar va konstruktiv devorlarni qisman qayta yotqizish.
3	Mir Arab madrasasi	30,0	Shimoli-g'arbiy burchakni mustahkamlash va tomni ta'mirlash.
4	Ulug'bek madrasasi (G'ijduvondagi)	8,5	Madrasaga tutashgan kechki karkasli binolarni demontaj qilish, qoplamalarni ta'mirlash va mustahkamlash, poydevor va devorlarni ta'mirlash, fasad sirtini tozalash, eshik va deraza teshiklarini to'ldirish.
5	Ark taxt zali	6,0	Sharqiy devorning vayron qilingan qismini tiklash, taxtning marmar ustunlarini tekislash va mustahkamlash, devorlarning dekorativ qismlarini mustahkamlash, tomni ta'mirlash.
6	Masjidi Kalon	2,0	Qoplamaning mustahkamlash va kirish joylariga temir panjaralar o'rnatish.
7	Bayonqulixon maqbarasi	1,0	Tashqi devorlar tomi va podvalini ta'mirlash, ichki devorlar sirtini tozalash.
8	Chashmai Ayyub maqbarasi	0,5	Zamonaviy kirish darvozasini qurish.
	<b>Jami</b>	<b>88,0</b>	

1960-yillarda davlat darajasida madaniy merosni muhofaza qilish siyosati kuchaydi. Xususan, 1968-yilda "Madaniy yodgorliklarni himoya qilish haqida"gi qonun qabul qilinishi muhim qadam bo'ldi [1; 52-b.]. Bu davrda maxsus ustaxonalar tashkil etilib, restavratsiya uchun zarur materiallar tayyorlandi. Shuningdek, katta miqdorda moliyaviy mablag'lar ajratildi.

**Xulosa.** XX asr Buxoro uchun sinovli davr bo'lib, madaniy merosga nisbatan qarama-qarshi yondashuvlar bilan xarakterlanadi. Bir tomondan, ko'plab yodgorliklarga zarar yetkazilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularni saqlash va tiklash bo'yicha muayyan institutsional asoslar yaratildi. Madaniy merosni asrash nafaqat ilmiy-texnik, balki milliy o'zlikni saqlash va tarixiy xotirani tiklash masalasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

**Takliflar**

Buxoro tarixiy markazining himoya hududini aniq belgilash va yangi qurilishlarni tartibga solish orqali uning asl qiyofasini saqlash.

Tarixiy hududlarda tijorat obyektlarini joylashtirishni cheklash va madaniy muhitni muhofaza qilish.

Jahon merosi hududlarida qurilish va restavratsiya ishlari ustidan nazoratni kuchaytirish.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Abriev R. B. O'zbekiston mustaqilligi yillarida tarixiy-me'moriy obidalarni ta'mirlash va qayta tiklash jarayonlari (Zarafshon vohasi misolida): monografiya. – T.: Fan, 2015.
2. Buxoro viloyati davlat arxivi. F-853-fond, 1-ro'yxat, 34-ish. – B. 56.
3. Jumanazarov A. Buxoro ta'lim tizimi tarixi. – T.: Akademiya, 2017. – 550 b.
4. Muhsinov I., Muhsinova M. Go'zallikning boqiy timsoli (Buxoro obidalari tarixidan lavhalar). – Buxoro, 2011.
5. Narkulov O., Mustaev B. Me'moriy obidalarni o'rganish va ta'mirlash tajribalari. – T., 2025.
6. Rajabov Q. Tarix qatidagi haqiqat: Buxoro amirligi qanday tugatilgan edi? (2-qism) // *Zarafshon*.
7. Mirziyoyev Sh. M. Buxoro viloyatiga tashrif davomida so'zlangan nutq. – 2017-yil 10-mart.
8. Archnet portali. – URL: <https://www.archnet.org> (murojaat qilingan sana: ko'rsatilmagan).